

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 448 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

MUNDARIJA

Innovatsion siyosatni amalga oshirish yo'nalishlari.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi.....	41
Idrisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	



Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budjetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'likov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida).....	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	



Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	
Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri.....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	
SWOT-анализ использования социальных сетей в туристической индустрии узбекистана	279
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
Germaniya tajribasidan foydalanish orqali o'zbekistonda turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini rivojlantirish masalalari	287
Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi, Ochilov Akram Odilovich	
Blockchain texnologiyasining bank operatsiyalari xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni.....	291
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
Tijorat banklarini reytingini aniqlashda bankometr modelidan foydalanish yo'llari.....	294
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Значение business city как инфраструктурного объекта	303
Солиева Умида Алишер кизи	
The potential for the development of wage labor as a factor	308
Usmanov Ilkhom Achilovich	
Ways to improve the organizational and economic mechanism of business tourism in Uzbekistan.....	312
Musayeva Shoirazimovna, Usmanova Dilfuza Ilkhomovna	
Kichik biznes subyektlarining faoliyatini baholashning metodologik asoslari	318
Mavrolov Ravshan Ne'matjonovich	
Kichik korxonalarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	324
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Mamlakatimizda intensiv baliqchilikni rivojlantirishning dolzarb masalalari	328
Mamatqulov Nurbek O'razali o'g'li	
Уменьшение выбросов парниковых газов и переход к возобновляемым источникам энергии	331
Р.Т. Шомуродов, И.И. Бахадиров, Р.Т. Умаров, И.Ш. Жамолиддинова	
Ipoteka bozorida investision muhitni yaxshilash yo'llari.....	341
Abdullaev Muhammadsodiq Isroil o'g'li	
Muammoli kreditlar: yechimlari va istiqbollari.....	346
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich	
Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish va ta'sirini baholash uslubiyati.....	351
Muxitdinov Shuhrat Ziyavitdinovich	
Zamonaviy sharoitda PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ning mazmuni va ahamiyati.....	356
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	
O'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o'ziga xos xususiyatlari	361
Xikmatillayeva Dildora Shavkat qizi	



Rahbar kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish ko'nikmalarini takomillashtirish Shadiyev Sherzod Fayzullayevich	366
Improvement of marketing communication strategies in chemical industry enterprises Muminova Dildora Dilshadovna	375
Mikromoliya tashkilotlarida islom moliyaviy instrumentlarini joriy etishni takomillashtirish Axmedova O'g'ilshod Musurmonqul qizi	380
Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflashning nazariy jihatlarini Qodirova Nafisa Ilhomovna	384
Importance-performance analysis as a useful tool for marketing audit processes of HEIs in Uzbekistan Nurillo Umarkhonov	388
Тенденции энергетики будущего: шаги в новую фазу Абдураимова Нигора Раджабовна	396
Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari Tursunov Zohidxo'ja Orifovich	405
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklar faoliyatini statistik tadqiq etish xususiyatlari Kutliyev Dilshod Orifovich	412
O'zbekistonda suv tanqisligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishgata'siri Maxmudov Nosir Maxmudovich, Alimova Guzal Alisherovna	419
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning kelajak istiqbollari Egamberdiyev Humoyun	424
O'zbekiston respublikasi davlat budjeti daromadlarini simpleks usulida optimallashtirish Fayzullayev Doston Mahmud o'g'li	428
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning holati hamda rivojlanish istiqbollari (namangan viloyati misolida) Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	433
Kichik korxonalarni rivojlantirishdagi muammolari va ularning yechimlari Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li, Ergasheva Nigora Abdigapparovna	439
Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi Xaydarova Charos Nizomiddin qizi	422



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Xaydarova Charos Nizomiddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni moliyalashtirishni bo'yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar ishi qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, xususiy sherikning davlat infratuzilma ob'ektlarida ishtirokining taqqoslama jadvali o'rganilgan. Rivojlanayotgan va o'rta daromadli mamlakatlarda 2030-yilgacha arqaror rivojlanish maqsadlarida yuqori samaradorlik ochib berilgan. Mintaqalarda YaIM va ulardagi davlat-xususiy sheriklikning ulushi tahlil etilgan. Jahonda davlat-xususiy sheriklik faoliyatini tartibga soluvchi maxsus tashkilotlar o'rganilgan. Xorijiy mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirishning asosiy jihatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma loyihalar, moliyalashtirish, xususiy sherik, resurs.

Abstract: The article compares the work of foreign and domestic economists on the financing of projects based on public-private partnership. Also, the comparison table of the participation of the private partner in the state infrastructure objects was studied. In developing and middle-income countries, high efficiency has been revealed in the goals of sustainable development until 2030. GDP in the regions and the share of public-private partnership in them are analyzed. Special organizations that regulate PPP activities have been studied in the world. The main aspects of the development of public-private partnership relations in foreign countries were considered.

Key words: public-private partnership, infrastructure projects, financing, private partner, resource.

Аннотация: В статье сравниваются работы зарубежных и отечественных экономистов по финансированию проектов на основе государственно-частного партнерства. Также изучена сравнительная таблица участия частного партнера в объектах государственной инфраструктуры. В развивающихся странах и странах со средним уровнем дохода выявлена высокая эффективность целей устойчивого развития до 2030 года. Анализируется ВВП в регионах и доля в них государственно-частного партнерства. В мире изучены специальные организации, регулирующие деятельность ГЧП. Рассмотрены основные аспекты развития отношений государственно-частного партнерства в зарубежных странах.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, инфраструктурные проекты, финансирование, частный партнер, ресурс.

KIRISH

Bugungi kunda davlatlarning iqtisodiy ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy va xususiy investitsiyalardan samarali foydalanish, amalga oshirilayotgan loyihalarni ham sifat ham miqdor jihatdan xalqaro standartlarga olib chiqish, amalga oshirilgan va rejalashtirilayotgan loyihalarni umurboqiylicini oshirish, mamlakatlarda qashshoqlikni kamaytirish, ijtimoiy farovonlikni oshirish, loyihada qo'llaniladigan texnika va texnologiyalarni hamda boshqaruv uslublarini tubdan takomillashtirish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda. Tajriba shuni ko'rsatdiki, yuqorida sanab o'tilgan bir qancha muammolarni barataraf etishda davlat-xususiy sektor bilan hamkorlik munosabatlarini takomillashtirish orqali erishish mumkin va bu mamlakatlarga xususiy sektor samaradorligi va investitsiyalardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular quyidagilardan iborat. Jumladan: Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Avstraliya, Germaniya, Rossiya hamda boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning davlat-xususiy sheriklik munosabatlari borasidagi samarali tajribalarni o'rganib mamlakatimizga joriy etish ahamiyatli hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan omillar transport, energetika, ijtimoiy infratuzilma va telekommunikatsiya sohalarini infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmaganligidandir. Ko'pincha xavf va xarajatlarni yetarli darajada aniqlash va baholash yo'q, bu esa loyihaning texnik-iqtisodiy asosla-



nishining yomonligiga va yirik loyihalarni qabul qilishdan voz kechishga olib keladi. Ushbu muammolarni hal qilishda Jahon amaliyotining eng samarali usullardan biri davlat-xususiy sheriklik munosabatlari asosida investitsion loyihalarni amalga oshirish juda muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va institutsional islohotlar investitsiya muhitini yaxshilashga, xorijiy va mahalliy investorlar sonining ortib borishiga ko'maklashmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy ravishda davlat tasarrufida va boshqaruvida bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammo va kamchiliklar davlat-xususiy sheriklik tizimini joriy etishni jadallashtirish yuzasidan muhim choralar ko'rishni taqozo etmoqda. Ijtimoiy va kommunal sohalar, shaharsozlik va obodonlashtirish, yo'l xo'jaligi, energetika sohasidagi davlat monopoliyasi tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatini, davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini pasaytirmoqda. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning tamoyillari, shartlari va yo'nalishlarini belgilovchi huquqiy va institutsional baza, shuningdek, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda budjet tizimiga moliyaviy, texnik va tijorat tavakkalchiliklarining ta'sirini baholash mexanizmi ishlab chiqilmagan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda dunyoda davlat-xususiy sherikchilik g'oyasi ancha keng tarqalganligi hech kimga sir emas. Britaniya moliyaviy xizmatlari eksportini qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadigan London xalqaro moliya xizmatining hisobotiga ko'ra, dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlari davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini ishlab chiqishgan. Xorijiy mamlakatlarda davlat-xususiy sherikchilikni qo'llash sohalar juda xilma-xildir. Hamkorlar o'rtasidagi sheriklik (hokimiyat organlari va biznes) turli tuzilmalar doirasida har xil ko'lamdagi vazifalar va kompetensiyalar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Xorijiy iqtisodchi olimlarning davlat-xususiy sheriklik bo'yicha bo'yicha bergan ta'riflarini keltirib o'tamiz. Jumladan:

Ye.A. Dinin esa "davlat-xususiy sheriklik – ijtimoiy ne'matlar yaratish yoki ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun uzoq muddatli va o'zaro foydali asosda jamiyat (davlat va xususiy sektor)ning moddiy va nomoddiy resurslarini birlashtirish jarayonidir", - deb qayd etadi.

Shuningdek, iqtisodchi olim S.S.Chernovning fikriga ko'ra: "Davlat-xususiy sektor hamkorligi transport, energetika va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida davlat va biznes uzoq muddatli hamkorligining alohida shakli" - deb hisoblaydi.

B.Shahining fikricha, infratuzilmani rivojlantirish istiqbollarini belgilash – hududlar va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy maqomini, turmush darajasini va atrof- muhit ahvolini tahlil qilish uchun to'g'ri va aniq yondashuvni namoyon qiladi. Infratuzilmaga investitsiyalar jalb etish iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning qoq markazida turadi, bunday investitsiyalar hajmini oshirishda davlat-xususiy sheriklik alohida ahamiyat kasb etadi.

R.Nurske tomonidan bildirilgan fikrlarda ishlab chiqarish salohiyatiga xizmat qiluvchi elementlardan tashkil topgan infratuzilma loyihalarining ta'siri belgilab berilgan, shuningdek, kichik tarmoqqa o'xshash bo'lgan infratuzilma aslida juda muhim va ahamiyatli ekanligi, uni shakllantirishda davlat-xususiy sheriklik amaliyoti eng muhim ekanligini ta'kidlagan.

A.O.Hirschman (1958) va keyinchalik D.Biehl (1994) infratuzilma davlat xizmatlarini ta'minlovchi kapital sifatida qayd etib o'tgan. Infratuzilma tabiatan yo'lning kesishma joyiga o'xshaydi, ya'ni maqsad yoki istalgan natija (ishlab chiqarish, transport, kommunikatsiya, sog'liqni saqlash, ta'lim) maqsadlariga erishish uchun hukumat yoki boshqaruv subyektlari tomonidan kuchli xususiy sektor bilan birgalikda amalga oshirilsa muvaffaqiyatli hisoblanadi.

I.S.Vaxtinskaya davlat-xususiy sheriklik borasida o'zining ilmiy ishlarida kontsessiya bitimlarining fuqarolik-huquqiy belgilarini ko'rib chiqdi, I.A.Gubanov Rossiya davlatining vazifalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sektor hamkorligini o'rganib chiqdi, A.A.Rodin o'z ishini davlat-xususiy sheriklikka nisbatan xalqaro va davlatlararo huquqning o'zaro hamkorligi masalalariga asosiy urg'uni bergan, A.B.Belitskaya esa davlat-xususiy sheriklikning mohiyati va uning asosiy tarkibiy qismlarini batafsil yoritib berishga etiborini qaratgan.

TADQIQOT METADALOGIYASI


Maqolada umumlashtirish, guruhlash, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Rivojlanayotgan va o'rta daromadli mamlakatlarda 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlarida yuqori samaradorlikka erishish uchun talab etilayotgan investitsiya mablag'lari miqdori YalMga nisbatan tahlil qilinganda, 2030-yilga borib bunday mamlakatlarda infratuzilmaga bo'lgan talab hajmining pasayishi, xususan,



sog'liqni saqlash, ta'lim, energetika, transport-suv xo'jaligida amalga oshirilishi kutilayotgan investitsiya loyihalari hajmi bugungi kunga nisbatan pasayish tendensiyasida ekanligini kuzatish mumkin. Bunda ta'lim va sog'liqni saqlash sohasiga ajratilishi kutilayotgan investitsiya mablag'lari miqdori 2022-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,5 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2030-yilga borib 2 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.



1-rasm. Rivojlanayotgan mamlakatlarda 2030-yilgacha rivojlanish ko'rsatkichlari keltirilgan, (YaIMga nisbatan foizda).

Mintaqaviy yalpi ichki mahsulotga nisbatan Lotin Amerikasi va Karib dengizi hududi davlatlari 2022-yilda eng yuqori DXShga ega bo'lib, 0,53 foizni tashkil etgan. Undan keyin Janubiy Osiyo mamlakatlari 0,34 foiz, Shimoliy Afrika davlatlari 0,25 foiz va Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hududi 0,21 foiz. O'rta sharq va Shimoliy Afrika hamda Yevropa va Markaziy Osiyo yalpi ichki mahsulot bo'yicha davlat-xususiy sheriklik investitsiyalarining eng past darajasiga ega mintaqalar bo'ldi.

1-jadval. Mintaqalarda YaIM va ulardagi davlat-xususiy sheriklikning ulushi.

Mintaqalar	DXSh (mln. AQShdollarida)			YaIM (mln. AQSh dollarida)			DXSh/YaIM(foizda)		
	2020	2021	2022	2020	2021	2022	2020	2021	2022
Sharqiy Osiyova Tinch okeani hududi	9500	28081	4337	1720714	1744895	207517	0,6	0,6	0,1
Yevropa va Markaziy Osiyo	4600	1501	332	324804	322240	351737	0,1	0,4	0,1
Lotin Amerikasi va Karib dengizi hududi	14000	18589	24328	4769077	4035271	4585104	0,2	0,4	0,5
O'rta sharq va Shimoliy Afrika	1200	626	196	140862	1195746	149043	0,1	0,1	0,2
Janubiy Osiyo	10200	8693	1386	3658004	3386420	4088770	0,28	0,2	0,3
Shimoliy Afrika	6300	5202	486	182172	170234	1919444	0,3	0,3	0,2

2020–2022-yillarda mintaqalar kesimida YaIM hajmining o'zgarishi hamda unga nisbatan davlat-xususiy sheriklik loyihalari uchun sarflangan mablag'larning o'sish sur'atini tahlil qiladigan bo'lsak, eng katta o'sish Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hududi davlatlariga to'g'ri kelganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni 2020-yilga nisbatan salkam 5 barobarga ko'proq mablag'lar jalb etilgan. Aksincha, Yevropa va Markaziy Osiyo, shuningdek, Shimoliy Afrika mintaqalarida esa davlat-xususiy sheriklik loyihalariga yo'naltirilgan mablag'lar yildan-yilga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Lotin Amerikasi va Karib dengizi hududi davlatlarida, yiliga o'rtacha 5 mlrd. dollarlik o'sish kuzatilgan. O'rta sharq va Shimoliy Afrika hamda Janubiy Osiyo mintaqalarida garchi, 2021-yilda biroz pasayish



kuzatilgan bo'lsa-da, yakunda ijobiy tendensiyada yakunlangan. Qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, yuqorida tahlil qilgan hududlarda, so'nggi 3 yilda 200 mlrd. dollardan oshiqroq mablag' yo'naltirilgan.

Rivojlantirgan davlatlar miqyosida oladigan bo'lsak, 2019-yilning may oyidan boshlab davlat-xususiy sheriklik modeli Xitoyning barcha provinsiylariga tatbiq etilib kelinmoqda. Ushbu mamlakatda davlat xizmatlari va infratuzilma loyihalarida, butun mamlakat bo'ylab 8839 ta loyiha va uning moliyaviy investitsiyalardagi qiymati esa 13,5 trillion yuanga etdi. Bu faqat identifikatsiya bosqichini tugatgan loyihalar ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, bu bosqich yana qo'shiladigan bo'lsa, davlat-xususiy sheriklik loyihalari soni 10 000 dan oshishi ehtimoli katta. Xitoyda davlat-xususiy sheriklik modeliga hukumat va jamiyatning barcha qatlamlari darajasida katta e'tibor qaratilmoqda. 2020-yilgi global pandemiya inqirozidan beri, iqtisodiy rivojlanishning normal tezligini tiklash va haddan tashqari iqtisodiy tebranishlardan qochish maqsadida, Xitoy siyosatining bir nechta bosqichlarini ketma-ket joriy etdi. Natijada iqtisodiyot asta-sekin tiklandi va keskin o'sdi.

Mamlakatda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda asosiy e'tibor qarz kapitaliga qaratilmoqda. Moliyaviy sektorda bo'lmagan korxonalarning qarz yuki (leverage koeffitsiyenti) darajasi davlat sektori va aholiga qaraganda ancha yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Korxonaning qarz darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, korporativ daromad shunchalik yuqori bo'ladi, lekin korxonalar zarar ko'rsa, tegishli qarz o'z kapitalining yo'qotilish ehtimolini ham oshirishini esdan chiqarmaslik kerak. Korporativ leverage koeffitsiyenti qanchalik yuqori bo'lsa, korxonalarning potentsial riski shunchalik yuqori bo'ladi va korxona moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelganda bankrotlik ehtimoli shunchalik baland bo'ladi. Shuning uchun korporativ leverage darajasi korxonalarni rivojlantirishda juda muhim rol o'ynaydi.

Xorij tajribasini tahlil qilish shuni aytish mumkinki, rivojlangan davlatlarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda yagona, umumiy vakolatli organlar mavjud bo'lsa, ayrimlarida bunday tashkilotlar bir nechta tashkil qilgan. Ayrim mamlakatlarda esa, davlat-xususiy sheriklik faoliyatini tartibga soluvchi maxsus tashkilotning o'zi umuman yo'q (2-jadval) Ushbu tashkilotlarning samarali faoliyat yuritishi, sohadagi ko'pgina muammolarning oldini olishga xizmat qiladi.

2-jadval. Jahonda DXSh faoliyatini tartibga soluvchi maxsus tashkilotlar.

DXSh sohasida markaziy boshqaruv darajasida bir nechta tashkilotlarga ega davlatlar		
1	Daniya	Daniya jamoat farovonligi texnologiyalari fondi, Biznes va innovatsiyalar fondi, Investitsiya fondi, Daniya tadbirkorlik va qurilish ma'muriyati
2	Xitoy	Xitoy Xalq Respublikasi Milliy taraqqiyot va islohotlar komissiyasi va boshqa bir qancha maxsus tashkilotlar
3	Rossiya Federatsiyasi	Rossiya Federatsiyasi iqtisodiy rivojlanish vazirligining investitsiya siyosati va Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish bo'limi, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligining bir qator bo'linmalari; Rossiya Federatsiyasining investitsiya fondi; uy-joy kommunal xizmatlarini isloh qilishga ko'maklashish jamg'armasi; federal yo'l agentligi
4	AQSh	Davlat-xususiy sheriklik bo'yicha milliy Kengash, Aqsh Davlat departamenti huzuridagi global hamkorlik tashabbusi kotibiyati Aqsh transport departamenti federal avtomobil yo'llari boshqarmasi va boshqa tashkilotlar ham mavjud.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish birinchidan, ushbu loyihalarning hayotiylik siklida korrupsiyani oldini olishni nazorat qilishga yordam beradi, ikkinchidan butun dunyoda ko'plab loyihalarning barbod bo'lishiga sabab bo'lgan talab riskini aniqlashda yordam beradi, uchinchidan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining so'nggi foydalanuvchilari jamiyat bo'lishini hisobga olsak, ularning iqtisodiy infratuzilma loyihalaridagi ta'riflarga munosabatini baholashga yordam beradi.

Xorijiy davlat tajribalariga keladigan bo'lsak, Yaponiya, Fransiya, Xitoy, AQSh, Angliyda davlatlari tajribalarini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, Buyuk Britaniyada 1980-yillarda qabul qilingan xususiy moliya modeli 2018-yilda bekor qilinmaguncha, o'z faoliyati davomida 56 milliard funt sterlingga yaqin xususiy investitsiyalar bilan 700 dan ortiq davlat-xususiy sheriklik loyihalarini jalb qildi. Qo'shma Shtatlarda Federal hukumat davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda faol rol o'ynadi. Masalan, AQSh transport departamenti shtat hukumatlariga ham, mahalliy hokimiyatlarga ham transport DXShlarini rivojlantirish uchun moliyaviy yordam ko'rsatadi. Shuningdek, u transport loyihalarini amalga oshirishga yordam beradigan qo'shma korxonalar yaratish uchun xususiy kompaniyalar bilan ishlaydi. Kanadada davlat-xususiy sheriklik turli sxemalar bilan ifodalanadi, ularga ko'ra joriy davrda umumiy qiymati qariyb 110 milliard AQSh dollariga teng 250 dan ortiq yirik infratuzilma loyihalari boshlangan va bu loyihalardan davlat g'aznasiga byudjet daromadlari har bir investitsiya qilingan dollar uchun Loyiha 3,6 AQSh dollarini tashkil etadi. Xitoyda 2014-yildan 2022-yil aprel oyigacha ma'lumotlar bazasiga jami 10304 ta loyiha kiritilgan bo'lib, ularda 16,4 trillion yuan sarmoya kiritildi, jami 7835 ta loyiha imzolandi, 12,9 trln. 8,3 trillion yuan sarmoyasi bilan qurilishni boshladi va ish stavkasi (qurilish loyihalariga investitsiyalarning



kutubxonaga kiritilgan loyihalarning umumiy investitsiyalariga nisbati 50,6% ni tashkil qiladi. Fransiyada faqat "Sheriklik shartnomasi" (Marche de partenariat) sxemasi bo'yicha loyihalarga kiritilgan sarmoyalar miqdori 40 milliard evrodan oshadi va turli xil shakllar soni imtiyozlar va shunga o'xshash tuzilmalar ("delegations de service public") 15000 dan oshadi. 2022-yilda Yaponiya hukumati infratuzilma va boshqa loyihalarda davlat-xususiy sheriklikni osonlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirishi mumkin. Shunday qilib, xorijiy biznes uchun turli sohalarda yapon hamkorlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari kengayishi mumkin. Qayta tiklanadigan energiya, sog'liqni saqlash, transport va raqamli infratuzilma kabi sohalar eng ko'p foyda keltirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2024–2030 yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-308-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda 2024–2030 yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturi keltirilgan. Unda quyidagi loyihalar amalga oshiriladigan bo'ldi.

- yirik shaharlar o'rtasida qulay va tezkor avtomobil qatnovi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsadida kamida 1 000 km zamonaviy pullik magistral avtomobil yo'llarini qurish va modernizatsiya qilish, shu jumladan Toshkent–Samarqand yo'lini qurish ishlarini 2024-yilda hamda Toshkent–Andijon yo'lini 2026-yilda boshlash;

- yillik energiya yo'qotishlarini kamida ikki baravar pasaytirishni belgilagan holda barcha hududlarda elektr taqsimlash tarmoqlarini 2027-yil 1-iyulga qadar, tabiiy gaz taqsimlash tarmoqlarini esa 2027-yil yakuniga qadar xususiy operatorlarga topshirishni nazarda tutuvchi shartnomalarni imzolash;

- yiliga qo'shimcha 30 foizgacha elektr energiyasini tejash maqsadida 2028-yilga qadar barcha ma'nan eskirgan irrigatsiya nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish bo'yicha kelishuvlarga erishish;

- toza va doimiy ichimlik suvi bilan ta'minlash qamrovini 87 foizga, markazlashgan oqova suv ta'minoti qamrov darajasini 30 foizgacha oshirishni nazarda tutgan holda 2028-yil yakuniga qadar har bir hududda ichimlik va oqova suv tarmoqlarini modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish uchun xususiy kompaniyalarni jalb qilish;

- 400 mingdan ortiq o'quvchilar sig'imiga ega zamonaviy ta'lim muassasalari hamda 300 mingdan ortiq tarbiyalanuvchilar sig'imiga ega maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil qilish maqsadida 2026-yildan boshlab davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida har yili kamida 100 ta maktab va 100 ta maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish va boshqarishni tashkil etish;

- ilg'or texnologiyalarga asoslangan tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 100 mingdan ortiq bemorlarga xizmat ko'rsatuvchi ko'p tarmoqli shifoxonalarni qurish va ularni xususiy operatorlar boshqaruviga berish lozimligi inobatga olinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, Mamlakatimiz davlat-xususiy sherikliklar uchun huquqiy bazani yaratishda sezilarli yutuqlarga erishdi va o'z oldiga davlat-xususiy sheriklik sektoridagi ishtirokni oshirish bo'yicha katta maqsadlar qo'ydi. O'zbekistondagi davlat-xususiy sheriklik xususiy sektor mablag'lari, tajriba va texnologiyalarni jalb qilish hamda infratuzilmadagi bo'shliqni tugatishga yordam berish imkoniyatiga ega. DXSh dunyoning deyarli barcha davlatlarida qo'llanilib kelinadi. Bunda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish jarayonida jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishi, ko'zda tutilgan va tutilmagan ko'pgina risklarni oldini oladi.

Davlat-xususiy sheriklik sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun biz xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish jarayonida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik. Ular quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish lozim;

- davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligi va afzalliklarini baholash uslubini ishlab chiqish, ushbu loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kerak;

- davlat-xususiy sheriklik sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda idoralararo muvofiqlashtirishni ta'minlash, shuningdek, loyihalar to'g'risidagi axborotni ochiq holda joylashtirish va ularning reyestrini yuritish bo'rish lozim;

- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, shu jumladan, muayyan loyihalar konsepsiyalarini ishlab chiqishda vazirlik va idoralarga ko'maklashish;

- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish masalalarida investorlar, xalqaro moliya va donor tashkilotlari, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek, bozorning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil etish;

- davlat-xususiy sheriklik loyihalarini, shu jumladan, loyihalarga jalb qilingan budjet tizimi mablag'laridan foydalanilishini, shuningdek, tegishli tarmoqlardagi xalqaro tajribani inobatga olgan holda loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish amaliyotini monitoring qilib borish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Dudin, M.N.; Frolova, E.E.; Protopopova, O.V.; Mamedov, O.; Odintsov, S.V. Study of innovative technologies in the energy industry: nontraditional and renewable energy sources // *Entrepreneurship and Sustainability Issues* 2019. 6(4). PP. 1704–1713. [https://doi.org/10.9770/jesi.2019.6.4\(11\)](https://doi.org/10.9770/jesi.2019.6.4(11)).
2. Nijkamp, P., and Rienstra, S. A. (1995). "Private sector involvement in financing and operating transport infrastructure." *Ann. Reg. Sci.*, 29(2), 221–235.
3. California Debt & Investment Advisory Commission issue brief, Privatization vs. public-private partnerships: a comparative analysis, august 2007, CDIAC #07
4. Patricia M., Leire L., Jose M. A framework for public-private-people partnerships in the city resilience-building process, A framework for public-private-people partnerships in the city resilience-building process.
5. Tristano Sainati, Giorgio Locatelli, Nigel Smith, Naomi Brookes, Graham Olver,. Types and functions of special purpose vehicles in infrastructure megaprojects, *International Journal of Project Management*, Volume 38, Issue 5, 2020, Pages 243-255, ISSN 0263-7863
6. T. Ahola, I. Ruuska, K. Artto, J. Kujala What is project governance and what are its origins? *International Journal of Project Management*, 32 (2014), pp. 1321-1332
7. S. Hanaoka and H.P. Palapus, Reasonable concession period for build operate-transfer road projects in the Philippines, *International Journal of Project Management*, 30 (2012), pp. 938-949

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Shahzod Avilqulov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

